

GINEKOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI

Beshariq

Abu Ali ibn Sino nomli jamoat

salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Po'latova Muyassar Nabijon qizi

Annotatsiya : Ginekologiya klinik tibbiyotning bir sohasi; turli yoshdagi xotin-qizlar organizmining o'ziga xos anatomik- fiziologik xususiyatlarini hamda ularning jinsiy a'zolari kasalliklarini o'rganadi. Ginekologiya klimakterik davrga xos kasalliklar, tug'maslik sabablari, ularning oldini olish va davolash yo'l yo'riqlarini ham o'rganadi.

Kalit so'z: Ginekologiya, klimakterik davr, xayz, jinsiy yetilish

Dolzarbliqi. Qizaloqlar va bo'yi yetib qolgan qizlar kasalliklarini o'rganish jadal ravishda o'rganib borildi; ularning jinsiy yetilish jarayonini o'rganish, jinsiy a'zolaridagi nuqsonlar, xayz ko'rish jarayonidagi o'zgarishlar hamda kasalliklarini erta aniqlash va davolash keyingi hayotida ro'y berishi mumkin bo'lgan noxush xolatlarni o'z vaqtida bartaraf etish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasida bepushtlik muammosi o'rganildi va uni davolash maqsadida jarroxlik usuli qo'llanildi. Homiladorlikning ilk davridayoq tashhis qo'yish, tug'ruqqa tayyorlash, shuningdek, tug'ruq bilan bog'liq bo'lgan xordiq muddatini o'zgartirish; O'zbekistan iqlimi sharoitida homiladorlikning yurak-qon tomir tizimiga ta'siri o'rganildi. Abort paytida infeksiya tushishining oldini olish va davolash, patogenez muammolari va bola tushish sabablarini o'rganishga oid qator tadqiqotlar o'tkazildi. Gemostazning o'ziga xos xususiyatlari va kamqon homilador ayollarda quvvat almashinuvi hamda bola ko'rish orasidagi muddat ko'rsatkichlari o'rganildi va ilmiy jihatdan asoslab berildi. Akusherlik qon ketishlarining oldini olish va uni davolash masalalari ishlab chiqildi. Barcha a'zo va sistemalar bir-biri bilan uzviy bog'liqligi tufayli Xotin-qizlar kasalliklariga butun organizmning kassalligi deb qarash lozim; ginekologik kasalliklar o'z navbatida boshqa a'zo va sistemalar kasalliklari oqibatida ham yuzaga kelishi mumkin. Bunda turli spetsifik va nospetsifik infeksiyalar, bolaliqda boshdan o'tkazgan kasalliklar, endokrin xastaliklar, moddalar almashinuvining buzilishi, hayotiy muhim a'zolar patologiyasi asosiy ahamiyatga ega. Xotin-qizlar kasalliklariga bir necha guruhlarga bo'linadi: yallig'lanish kasalliklari, hayz faoliyatining buzilishi, o'sma kasalliklari, jinsiy a'zolar rivojlanishi hamda joylashuvi anamaliyasi va hokazo. Xotinqizlarda ko'proq yallig'lanish kasalliklari kuzatiladi. Bu ko'p jihatdan reproduktiv sistemaning funksiyasi bilan bog'liq bo'lib, hayz, abort va ayniqsa tug'ruq jarayonida ayol organizmida infeksiya rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga keladi. Bundan tashqari spetsifik infeksiyalar, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar — zaxm,

soʻzak, trixomonada (qarang [Trixomonoz](#)), soʻnggi yillarda OITS (SPID), xlamidiyalar va viruslar Xotin-qizlar kasalliklarik.ning koʻpayishiga sabab boʻlmoqda. Koʻp hollarda Xotin-qizlar kasalliklarik.ni stafilokokk, streptokokk, zamburugʻlar va boshqa qoʻzgʻatadi. Ogʻir kechuvchi septik holatlarda, asosan, 2 va undan ortiq turdagi mikroorganizmlar kasallik qoʻzgʻatuvchi sifatida ishtirok etadi. Jinsiy aʼzolarining yalligʻlanishi kasalliklariga boshqa aʼzoldagi yalligʻlanish jarayonlari angina, sinusitlar, buyrak kasalliklari va hokazo ham sabab boʻlishi mumkin. Yalligʻlanish qaysi aʼzoda rivojlanishiga koʻra kolpit (qinda), endometrit (bachadonda), salpingit (bachadon nayida), ooforit (tuxumdonda) va boshqa farq qilinadi. Bu kasalliklarda gavda haroratining koʻtarilishi, intoksikatsiya, bosh ogʻrishi, umumiy ahvolning oʻzgarishi bilan birga mahalliy belgilar — qorin pastida ogʻriq boʻlishi, ogʻriqning oʻziga xos tarqalishi (irradiatsiya), qindan ajralmalar (oqchil) kelishi, baʼzan hayz funksiyasining buzilishi kabi alomatlar kuzatiladi. X.Q.K.ning koʻpchiligi hayz funksiyasining buzilishi — gipermenstrual sindrom (hayz qoni miqdorining ortishi) yoki, aksincha, gipomenstrual sindrom (hayz qonining kamayishi yoki hayzning siyraklashuvi), disfunktsional qon ketishi va boshqalar bilan bogʻliq. Xotin-qizlar kasalliklarik.dan jinsiy sistemaning xavfli va xavfsiz oʻsmalari koʻp, ular asosan tuxumdon va bachadonda kuzatiladi, boshqa jinsiy aʼzolda esa kam uchraydi. Jinsiy aʼzolarining oʻsma kasalliklarini onkologiya oʻrganadi. Ginekologik amaliyotda jinsiy sistemaning rakoldi kasalliklarini oldini olish muhim, chunki ular vaqt oʻtishi bilan rakka aylanishi ham mumkin. Oʻsmalar ham, rakoldi kasalliklar ham odatda koʻzga yaqqol tashlanmaydigan belgilersiz kechadi, shu sababli ayollar yiliga ikki marta akusherganekologga koʻrinib turishlari lozim.

Qiz bolalar va yosh qizchalarda ham jinsiy sistema kasalliklari kuzatiladi. Bu, hayz funksiyasining buzilishi va jinsiy aʼzolar rivojlanishidagi anomaliyalardir. Bunga, asosan, uning bolaligida boshidan kechirgan turli kasalliklari, noqulay turmush tarzi, hatto u ona qornidaligidayoq onasining birorbir jiddiy kasallik bilan ogʻrigailigi sabab boʻlishi mumkin. Hayz funksiyasining buzilishi qizlarda hayzning kech yoki erta boshlanishi, nomuntazamligi, qon ketishi va hokazo lar bilan kechadi. Davolash choralari qancha erta boshlansa, shuncha samaraliroq boʻladi.

Jinsiy sistema aʼzolarining rivojlanishi va joylashuvi anomaliyalari ham katta guruhni tashkil etadi; bular qizlik parda, qin, bachadon boʻyni sohasidagi bitishmalar, bachadonning baʼzan ikkita va hokazo boʻlishi. Bu anomaliya lar jarrohlik yoʻli bilan davolanadi. Jinsiy aʼzolar joylashuvi anomaliyalari (bachadon, qin devorlarining turli yoʻnalishda pastga siljishi, hatto tushib ^lishi) koʻpincha tugʻruq asoratlari, baʼzan chanoq tubining tugʻma zaifligi, ogʻir jismoniy mehnat oqibatida yuzaga keladi, bu odatda yoshi kattaroq ayollarda kuzatiladi. Bular jarrohlik usulida davolanadi.

Homiladorlikning asoratli kechishi bilan bogʻliq baʼzi patologiyalar (homiladorlikning erta muddatlarida homilaning tushib qolishi, [bachadondan tashqari homiladorlik](#),

yelbo'g'oz), ba'zi tug'ruq asoratlari (oqma yaralar, qo'shni a'zolar shikastlari) ham ginekologik kasalliklarga kiradi.

Xotin-qizlar kasalliklarik. ichida alohida guruhni neyro endokrin sindromlar tashkil etadi; bu, asosan, gipotalamogipofizar yaatologiyalar bilan bog'liq. Bular ginekologik hamda endokrinologik yo'l bilan davolaniladi.

Ayollar jinsiy sistemasi kasalliklarining oldini olish va davolashni respublikamizdagi tarkibida ayollar konsultatsiyam bo'lgan tug'ruq majmui va oilaviy poliklinikalar amalga oshiradi. Toshkentdagi akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot instituta, shuningdek, uning viloyatlardagi filiallari homiladorlik va tug'ruq jarayonlarining asoratsiz kechishi, onalar va bolalar muhofazasini ta'minlashda akusherlik va ginekologik yordamni ilmiy tashkil etish maqsadida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.^[1]

Xotin-qizlar i.ch.ning turli sohalarida faoliyat ko'rsatayotganlarini nazarda tutib, ko'chma ginekologik tekshiruv, ayollarni rejali profilaktik ko'rikdan o'tkazish yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasida Akusherlik va ginekologiya, Pediatriya ilmiy tadqiqot instituti, tibbiyot institutlari, vrachlar malakasini oshirish instituti hamda yirik kasalxonalarning ginekologiya bo'limlarida G. masalalarini hal etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib boriladi. Toshkent sh.da Respublika hamda 2 ta shahar perinatal markazi, shuningdek, yirik ilmiy tadqiqot institutlari va oliy o'quv yurtlari qoshida skrinning markazlari tashkil etilgan. Bular onalar o'limini bir necha marta kamaytirishga imkoniyat beradi.

Adabiyotlar:

- Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- Qodirova A. A. va b., Ginekologiya, T. 1997
- Berdimurod Saidqoriyev.